AUDITORLIK XULOSASIDA ASOS BO`LUVCHI MA`LUMOTLAR-AUDITORLIK DALILLARI

Turumova Dildora Abdumannonovna
Jizzax Politexnika Instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi o'qituvchisi

Ahmedova Sarvinoz San'at qizi
Jizzax Politexnika Instituti talabasi

Annatasiya: Auditor biror bir korxona tekshirishida albatta auditorlik dalillarini to'plashi lozim. Auditorlik dalillari tekshirilinayotgan korxonadan olinadi. Auditorlik dalillarini olishda moliyaviy hisobotning asosi bo`lgan boshlang`ich hujjatlar va buxgalterlik yozuvlari, shuningdek boshqa manbalardan olingan tasdiqlovchi ma‟lumotlardan foydalaniladi.

Kalit so’zlar: Auditorlik dalillar, ularni oldiga qo`yilgan talablar, auditorlik dalil turlari, dalillarni olish manbalari, dalillarni to„plash ketma-ketligi, auditorlik amallari va dalillari o`rtasidagi bog`liqlik, dalillarni olish usullari, auditorlik dalillaridan auditning tekshiruv ishi natijalaridan foydalanish.

Auditorlik dalillari - auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvi o'tkazish vaqtida yig`ilgan va auditorlik xulosasini asoslovchi ma‘lumot (axborot)lar hisoblanadi. Auditorlik dalillar hujjatlami tekshirish jarayonida; xo'jalik yurituvchi subekt xodimlari va uchinchi shaxslardan yozma va og'zaki so'rov o'tkazish yo'li bilan; hisob jarayonlarining bajalishi va xo'jalik faoliyati ustidan auditorning bevosita kuzatishi chog'ida olinishi mumkin.

Auditorlik dalillar bevosita olinadigan manbalarga quyidagilar kiradi:

- mijoz korxona va uchinchi shaxslarning dastlabki hujjatlari;
- mijoz korxona buxgalteriya hisobi registrlari va uning moliya xo'jalik faoliyatining tahlil natijalari;
- mijoz korxona xodimlari va uchinchi shaxslarning og'zaki bildirishlari;
- mijoz korxonaning bir hujjatlarini boshqalari bilan solishtirish, hamda uning hujjatlarini uchinchi shaxslaming hujjatlari bilan taqqoslash;
- mijoz korxona aktivlari va passivlarini inventarizatsiya qilish natijalari hamda uning moliyaviy hisobotlari.

Olingan daliliaming sifati ularning manbalariga bog'liq. Aditorlik dalillarini olishda moliyaviy hisobotning asosi bo`lgan boshlang`ich hujjatlar va buxgalterlik yozuvlari, shuningdek boshqa manbalardan olingan tasdiqlovchi ma‘lumotlardan foydalanilaudi. Auditorlik dalillari yetarli va mos bo`lishi kerak. Ushbu standartning maqsadi auditorlik tekshiruvi paytida olinadigan auditorlik dalillarining miqdoriga, sifatiga, shuningdek, auditorlik dalillarini olish maqsadida bajariladigan amallarga nisbatan talablarni belgilashdan iborat. Ushbu standartning talablari auditorlik tekshiruvini o`tkazishda barcha auditorlik tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

Auditorlik dalillarining yetarliligi auditorlik tashkilotiga fikr bildirish uchun zarur bo`lgan auditorlik dalillarining miqdoriy o`lchamini (chegarasini) ifodalaydi. Auditorlik dalillarining mosligi auditorlik

tashkilotining fikr bildirishida auditorlik dalillarining ahamiyati va ishonchliligini (aniqligini) bildiruvchi auditorlik dalillarining sifati o`lchamini ifodalaydi.

Auditorlik tashkiloti yetarli va mos auditorlik dalillarini olishi uchun quyidagi omillarga e'tibor berishi kerak:

- xo`jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi xarakteri, shuningdek daxlsiz va nazorat tavakkachiligini baholash;
- auditorlik tashkiloti tomonidan bajariladigan ishlar hajmi;
- mavjud ma'lumotning manbasi va ishonchliligi (aniqligi).

Auditorlik dalillari, agarda hujjatlar va aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlarning haqiqiy holati bilan tasdiqlanganda, ishonchli hisoblanadi.

Auditorlik tashkiloti auditorlik dalillarining ishonchliligini baholashda quyidagi umumiy qoidalarga amal kilishi zarur:
a) tashqi manbalardan olingan auditorlik dalillari (masalan, uchinchi shaxsdan olingan tasdiq) ichki manbalardan olingandan ko`ra ishonchliroq hisoblanadi;
b) agar buxgalteriya hisobi va ichki nazoratning mavjud tizimi samarali ishlasa, ichki manbalardan olingan auditorlik dalillari ishonchli hisoblanadi;
v) auditorlik tashkiloti tomonidan bevosita yig`ilgan auditorlik dalillari xo`jalik yurituvchi sub'ektdan olingan auditorlik dalillaridan ko`ra ishonchliroq hisoblanadi;
g) yozma ravishda olingan auditorlik dalillari og`zaki berilgan dalillardan ko`ra ishonchliroq hisoblanadi.

Turli manbalardan yig`ilgan auditorlik dalillari bir-biriga zid bo`lmasa, ishonchli hisoblanadi. Agar bitta manbadan olingan auditorlik dalillari ketma-ketlikda bo`lmasa yoki turli manbalardan olingan auditorlik dalillari bir-biriga zid bo`lsa, auditorlik tashkiloti qo`shimcha, aniq dalillar olish imkonini beruvchi amallarni bajarishi zarur. Agar auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobot to`g`risida fikr bildirish uchun yetarli dalillar ololmayotgan bo`lsa, u holda auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi kerak.

Xo`jalik yurituvchi sub'ekt (buyurtmachi) auditorlik tashkilotining auditorlik dalillarini olishi uchun zarur bo`lgan amallarni bajarishiga to`siq bo`luvchi harakat yoki harakatsizlik qilishga haqli emas. Xo`jalik yurituvchi sub'ekt vakillari yoki uchinchi shaxslar auditorlik tashkilotining auditorlik dalillarini olish maqsadida amallar bajarishiga to`siq bo`luvchi harakatlarni yoki harakatsizliklarni amalga oshirgan hollarda auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvini o`tkazishdan bosh tortishga haqli.

Auditorlik dalillarini xo`jalik yurituvchi sub'ektning ichki nazorat tizimini testdan o`tkazish va mohiyati bo`yicha tekshirish amallarini o`tkazish yo`llari bilan olish mumkin.

Ichki nazorat tizimining testlari auditorlik tashkiloti tomonidan xo`jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining holatini baholash uchun auditorlik dalillarini olish maqsadida bajariladigan amallarni ifodalaydi. Auditorlik dalillar olinishi kerak bo`lgan xo`jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining asosiy jihatlari quyidagilar hisoblanadi: tuzilma (buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi. xatolarning oldini olish, aniqlash va to`g`rilashga qaratilgan tuzilmaga ega ekanligi); ish yuritish (buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlari samarali ishlayaptimi).

Mohiyati bo`yicha tekshirish amallari auditorlik tashkilotining moliyaviy hisobotda xato-kamchiliklar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun auditorlik dalillari olish maqsadida bajaradigan amallarni ifodalaydi. Mohiyati bo`yicha tekshirish amallarini bajarishda quyidagi

savollar o`rganib chiqiladi: hisobot davri yakunlangan sanada majburiyatlar va aktivlarning mavjudligi; moliyaviy hisobotda aktivlar, majburiyatlar, xo`jalik operatsiyalari va hodisalarning to`liq aks ettirilishi; aktivlar va majburiyatlarning mos qiymatlarda aks ettirilishi; moliyaviy hisobotda xo`jalik operatsiyalari va hodisalarning aniq summalarini aks ettirish; daromad va xarajatlarni tegishli davrlarda aks ettirish.

Auditorlik tashkiloti auditorlik dalillarini quyidagi auditorlik amallarining bir yoki bir nechtasini bajarish yo`li bilan oladi:

- nazoratlash - yozuvlar, hujjatlar va moddiy aktivlarni tekshirish;
- kuzatish - boshqa shaxslar tomonidan bajariladigan jarayon va ishlarni o`rganish.

Masalan, auditorlik tashkilotining xo`jalik yurituvchi sub‘ekt tomonidan amalga oshiriladigan tovar-moddiy zahiralarning inventarizatsiyasini kuzatish; so`rov - xo`jalik yurituvchi sub‘ekt va undan tashqaridagi shaxslardan ma‘lumot yig`ish; hisoblash - boshlang`ich hujjatlar va buxgalteriya yozuvlaridagi arifmetik hisob-kitoblarning aniqligini tekshirish; analitik amallar - auditorlik tashkiloti tomonidan olingan ma‘lumotni tahlil qilish va baholash, buxgalteriya hisobida xo`jalik faoliyatidagi g`ayriqonuniy va noto`g`ri aks ettirilgan holatlarni aniqlash maqsadida xo`jalik yurituvchi sub‘ektning muhim moliyaviy va iqtisodiy ko`rsatkichlarini tekshirish, shuningdek, xato va kamchiliklar sabablarini surishtirish.

Auditor auditorlik xulosasini taqdim qilishda yetarli darajada tegishli audit dalillarni olish uchun audit tartiblarini amalga oshirish uchun mas'uldir. Auditorlar audit amalini bajarish uchun auditorlik tartib tabiati, vaqti va uzaytirish haqida qaror qabul qiladi. Audit amalining yana bir tabiati, auditning maqsad va uning turini ko'rsatadi. Audit amalini aniqlashning maqsadi bu riskni baholash tartibi, nazorat test, yoki mustaqil jarayonlaridir.

Auditor audit standartlariga muvofiq audit rejalashtirgan va amalga oshirganini dalillar asosida audit hujjatlarini tayyorlash kerak. Ish qog'ozlari yoki ishchi qog’ozlar atamalari ba'zan audit hujjatlariga murojaat qilinganda ishlatiladi. Auditor audit amallairni hujjatlar asosida amalga oshirib, audit dalillar tekshiriladi va moliyaviy hisobotlarga tegishli hulosalashitiriladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish asosida ta’kidlash zarurki, auditorlik tekshiruvlarining samaradorligi ma’lum darajada auditorlik dalillarni to’plashda qo’llaniladigan usullarni qanday mahorat bilan qo’llashga ham bog’liq. Dalillar ishonchli va asosli bo`lishi uchun og`zaki dalillarni elektron qurilmalar yordamidan foydalangan holda amalga oshirish ham yaxshi samara beradi deb o`ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2021 yil 25 fevral. O’RQ-677-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi qarori. «Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5210-son Qarori. http://lex.uz
3. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, *3*(12), 1013-1022.
4. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, *3*(10), 640-645.
5. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *2*(8), 37-40.

6. Turumova, D. A., & o'g'li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(6), 234-240.
7. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(4), 608-612.
8. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, *2*(14), 60-62.
9. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *3*(34), 290-294.
10. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *2*(22), 243-248.
11. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 6-9.
12. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 15-18.
13. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 34-37.
14. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 57-60.
15. Obidova, F. Y. (2020). GREEN INNOVATION IN BUSINESS MARKET. *Экономика и социум*, (10), 191-194.
16. Rasulova, S. G., & Obidova, F. Y. (2019). ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 426-429.
17. Yahyoyevna, O. F. (2023). FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION. *World Economics and Finance Bulletin*, *18*, 72-77.
18. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2023). BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(3), 208-215.
19. Obidova, F. Y. (2020). SMALL BUSINESS IN THE ECONOMY. *Economy and Society*, (2), 264.
20. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2019). SIGNIFICANCE OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. *Actual scientific research in the modern world*, (2-6), 53.
21. Obidova, F. Y. (2017). REFORMING OF THE EDUCATIONAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Actual scientific research in the modern world*, *13*(11-13), 87.
22. Умарова, З. О., & Обидова, Ф. Я. (2019). Значение свободных экономических зон в развитии национальной экономики. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-6), 53-57.

23. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 464-469.
24. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.
25. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(3), 37-40.